

ASAD DILMURODNING “MAHMUD TOROBIY” TARIXIY ROMANI

Shokirboyeva Sarvinoz

Farg’ona davlat universiteti filologiya fakulteti

o’zbek tili yo’nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Asad Dilmurod qalamiga mansub “Mahmud Torobiy” asarida ilgari surilgan g’oyalar, asardagi obrazlar ularning asar voqealarida tutgan o’rni, asar badiiyati haqida so’z boradi. Ushbu asar Mahmud Torobiy hayotiga bag’ishlangan, asarda uni vatan ozodligi yo’lida ko’rsatgan qahramonliklari haqida gap boradi.

Kalit so’zlar: tarixiy roman, real tarixiy faktlar, mardlik, vatan, sadoqat, qahramonlik, xiyonat, e’tiqod, nomusi.

Tarixiy roman — o’tmish voqealarini, tarixiy shaxslar hayotini va o’sha davr ijtimoiy-siyosiy muhitini badiiy to’qima bilan birlashtirgan epik nasr janri. Bu janrdagi asarlar o’quvchini tarixiy davrga olib kirib, qahramonlar orqali o’tmishdagi muhim hodisalar, insonlar taqdiri va jamiyat rivojlanishini tushuntirib beradi.

Tarixiy romanlar odatda aniq tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar markazida quriladi. Roman syujeti real tarixiy faktlarga asoslanadi, lekin yozuvchining badiiy to’qimasi, qahramonlarning ichki dunyosi va drammatizm kabi elementlar bilan boyitiladi. Tarixiy romanlar o’z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy sharoitini aks ettirib, o’quvchini tarixiy davrga singdirishga qaratilgan.

Bu janr dunyo adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri hisoblanadi. Xususan, o’zbek adabiyotida ham bu janrga oid bir qancha asarlarni ko’rishimiz mumkin. Misol sifatida Oybekning “Navoiy” romanini, Odil Yoqubovning “Ulug’bek xazinasi” asarlarini, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” romanarini keltirish mumkin. Yana bir shu janr namunalar hisobiga kiruvchi Asad Dilmurodning “Mahmud Torobiy” romanini keltirish mumkin.

“Mahmud Torobiy” - yozuvchi Asad Dilmurod qalamiga mansub tarixiy roman. Bunday Mahmud Torobiy hayoti haqida gap ketadi. Bu asar 1998-yili Mahmud Torobiy tavalludining 760 yilligi munosabati bilan nashrdan chiqdi. Asar voqealari tarixiy manbalar asosida badiiy talqin etilgan bo‘lib, undagi obrazlar tizimi roman g‘oyaviy-badiiy mazmunining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Asarda bir qancha obrazlar va ularning xarakter xususiyatlari haqida gap boradi. Ularda aks etgan vatanga sadoqat, mardlik, g‘urur, xiyonat, odamiylik, xudbinlik, qo‘rquv ham o‘z o‘rnida va o‘ziga xos ko‘rinishda o‘z aksini topgan. Asardagi sadoqat, vatanparvarlik, g‘urur kabi xislatlar Mahmud Torobiy, Shamsiddin Mahbubiy, Shayx Ibrohim, Navro‘zbek, Muhammad, Ali obrazlari orqali ko‘zga tashlansa, xudbinlik, xiyonat, razillik kabi illatlar Chig‘atoy, Bo‘rinayxon, Burhoniddin, Olovxon Yusuf obrazlari orqali ochib berilgan.

Asar bosh qahramoni Mahmud Torobiy haqida gap ketar ekan, yozuvchining: “Mahmud Torobiy e‘tiqod, haqiqat, iymon va erk farzandidir, uning nomi ham, maslagi ham, shijoati ham har qanday saltanat, har qanday zo‘ravonlik yo‘riqlaridan baland turadi”, - deb bergan ta‘rifini eslaymiz. Chindan ham Mahmud Torobiy obrazi asarda haqiqiy vatanparvar, jasur, o‘z diniga sobit tura olgan obraz sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Bundan tashqari uning ustozlariga ko‘rsatgan ehtiromi, har qanday vaziyatda aql bilan qaror qabul qilishi, jigarlariga bo‘lgan munosabati ham tahsinga sazovordir. Uning yana bir muhim jihatidan biri vatan oldidagi burchini har narsadan ustun qo‘yishidir, hattoki, oilasi o‘rtaga qo‘yilganda ham ajdodlari merosini unutmagan holda vatan ozodligi kurashiga otlanishi ham insonni hayratga solmay qo‘ymaydi.

Asarda yana bir ko‘zga tashlanuvchi, Mahmud Torobiyning sodiq safdoshi va ustози Shamsiddin Mahbubiy obrazidir. Shamsiddin Torobiyga eng yaqin kishilardan biri sifatida qat‘iyat, sadoqat, vatanparvarlik fazilatlarini ifodalaydi. U qahramonning ruhiy tayanchi, xalq bilan aloqa ko‘prigi, siyosiy hamkori sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarning boshqa obrazlarida ham o‘ziga xos mardlik, qat‘iyatlilik ko‘zga tashlanadi. Shunday obrazlardan biri Suyguna Zebo obrazidir. U ayol bo‘lishiga qaramay, o‘z sha‘nini

himoya qilishi, jasurligi, vaqti kelsa hech qaysi yigitdan qolishmasligi, g'ururi baland, oriyatlilik kabi xislatlari bilan namoyon bo'ladi. Yana shunday ayol obrazlaridan biri Subuhabibi obrazidir. Bu obraz o'z nomusi toptalishidan ko'ra o'limni afzal ko'rgan personajdir. Asarda bunday obrazlar bir qancha uchraydi. Lekin bularga xilof ravishda asarda inson qonini junbushga keltiruvchi yomon illatli obrazlar ham ko'zga tashlanadi. Mana shunday obrazlaridan biri Bo'rinayxon obrazi. U qilgan razilliklar, xudbinlik yo'lida qilgan ishlari inson e'tiboridan chetda qolmaydi. U bilan bir safda turuvchi Burhoniddin obrazi ham bundan mustasno emas.

Asar voqealari davomida insonni o'tgan soluvchi narsalardan yana biri, nega shuncha tayyorgarlik va jangovar mahorat bilan ham qo'zg'olon oxiri hech qanday natijasiz tugashi va Mahmud Torobiyning fitnaga uchrashidir. Muallif bilan bo'lgan suhbatlaridan birida yozuvchi bu haqida shunday fikrlarni aytib o'tadi: "Mahmud Torobiy qo'zg'oloni natijasiz tugashi, o'zi esa fitna qurboni bo'lishi ajdodlarimiz qismatiga xos fojiaadir. O'sha kurash g'alaba bilan ham yakunlanishi ham mumkin edi, lekin unday bo'lmadi. Isyonchilar o'z sarkardalarini asrab qololmadilar va oqibatda yengildilar.

Mahmud Torobiy g'anim qo'lida emas, o'z qavmidan chiqqan - nurga emas, zulmatga talpingan kaltabin va johil kimsa qo'lida halok bo'ldi". Abdulla Qodiriy ta'biri bilan aytganda, mehrobdan chiqqan chayonlar shu fojiaga sabab bo'ldi. Shundan chayonlardan biri, Chig'atoy qo'g'irchog'iga aylangan obrazlardan biri Olovxon Yusufdir. Uning otasi haqiqiy vatanparvarlardan edi, lekin u otasiga o'xshamadi, afsuski.

Har bir bu asarni o'qigan o'quvchi xayoliga Behbudiyning "Haq berilmas - olinur" so'zlari keladi. Ular o'z haqlari uchun jon olib jon berishdi. Bu yo'lida hamma narsalaridan voz kechishdi. Vatan ozodligi yo'lida hech narsadan qaytmasliklarini, joylarini berishga ham tayyor ekanliklarini isbotlashdi. Va buni Asad Dilmurod "Mahmud Torobiy" asarida go'zal tarzda yoritib bera oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov."Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari", Toshkent "Navoiy universiteti", 2018.

2. A.Ulug'ov "Adabiyotshunoslik nazariyasi", Toshkent "G'afur G'ulom", 2018
3. Asad Dilmurod "Mahmud Torobiy" romani, Toshkent "Sharq" nashriyoti, 1998.
4. n.ziyouz.com